

“UzGasTrade” AJ ning
Kuzatuv kengashi tomonidan
2025-yil “19” maydagida
majlis qarori bilan
tasdiqlangan

**“UZGASTRADE” AKSIYADORLIK JAMIYATINING
KOMPLAENS NAZORAT BO‘LIMI
NIZOMI**

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Komplaens nazorat bo'limi "UzGasTrade" aksiyadorlik jamiyatining (keyingi o'rinlarda Jamiyat) tarkibiy bo'linmasi hisoblanadi normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiqlikni ta'minlash va korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmasi bo'lgan Komplaens nazorat bo'limiga (keyingi o'rinlarda – Bo'lim) qo'yiladigan talablarni, faoliyat yo'nalishlari, ularning huquqlari, majburiyatlari va javobgarligini belgilaydi.

1.2. Nizom O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi (keyingi o'rinlarda - Agentlik)ning 2021-yil 6-sentabrdagi "Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati to'g'risidagi namunaviy nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi 27-sonli buyrug'i (Adliya vazirligi tomonidan 2021-yil 8-sentyabrda 3319-son bilan ro'yxatga olingan) talablaridan kelib chiqib ishlab chiqilgan.

1.3. Bo'lim - Jamiyat faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi xalqaro standartlar, qonun va normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq tashkil etiladigan, korrupsiya xavf-xatarlari, manfaatlar to'qnashuvini o'z vaqtida aniqlash hamda chek qo'yish, qonun buzilishi va korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar haqida xabar berishni o'zida mujassam etgan mustaqil tarkibiy tuzilma hisoblanadi.

1.4. Bo'lim korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash, oldini olish, ularning sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etish, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik hamda korrupsiyaga nisbatan muvofiq munosabatni shakllantirish choralarini ko'rish uchun mas'ul hisoblanadi.

1.5. Bo'lim o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligining 2021-yil 6-sentabrdagi 27-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari faoliyati to'g'risidagi namunaviy Nizom"ga hamda ushbu Nizomga amal qiladi. Bo'lim o'z faoliyatini qonuniylik, xolislik, hisobdorlik, ochiqlik va shaffoflik prinsiplari asosida mustaqil ravishda amalga oshiradi, jamiyat ustavi, jamiyat rahbarining buyruqlari, ko'rsatmalari, qoidalar, yo'riqnomalar va boshqa me'yoriy hujjatlar, tasdiqlangan ish rejalar, ichki mehnat tartibi qoidalari, xavfsizlik qoidalari, mehnatni muhofaza qilish va boshqalar, bevosita jamiyat Kuzatuv kengashiga bo'ysunadi.

1.6. Bo'lim Jamiyat Kuzatuv kengashiga bo'ysunadi va uning oldida hisobdor.

2. Bo'lim xodimlari tayinlash tartibi

1. Bo'lim xodimlari Kuzatuv kengashi tomonidan tayinlanadi.

2. Bo'lim xodimlari nomzodi ko'rilayotganida va tasdiqlanayotganida qaror Kuzatuv kengashi tomonidan oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

3. Bo‘lim xodimlari lavozimiga oliy ma‘lumotli, komplaens nazorat sohasida uch yildan kam bo‘lmagan ish stajiga hamda amaliy bilimga ega shaxs tayinlanadi. Bo‘lim xodimlari lavozimiga nomzod Kuzatuv kengashiga o‘zining jinoiy, ma‘muriy yoki boshqa javobgarlikka tortilgani bo‘yicha faktlarni ma‘lum qilishi shart.

4. Bo‘lim xodimlari o‘zining nomzodi ko‘rib chiqilayotgan Kuzatuv kengashi majlisida qatnashishi mumkin.

5. Jamiyat Kuzatuv kengashi tomonidan Bo‘lim xodimlari nomzodi tasdiqlanganidan so‘ng, u bilan lavozim majburiyatlarini bajarishga mehnat shartnomasi tuziladi. Jamiyat nomidan tuziladigan mehnat shartnomasi Kuzatuv kengashi raisi yoki Kuzatuv kengashi tomonidan vakolat berilgan shaxs tomonidan imzolanadi.

6. Bo‘lim xodimlari Jamiyat Ustaviga, shuningdek mehnat shartnomasining shartlariga rioya etmaganligi uchun bir vaqtning o‘zida mehnat shartnomasini bekor qilish orqali egallab turgan lavozimidan ozod etilishi mumkin. Bo‘lim xodimlari egallab turgan lavozimidan ozod etish va u bilan mehnat shartnomasini bekor qilish to‘g‘risidagi qaror Kuzatuv kengashi tomonidan qabul qilinadi. Bo‘lim xodimlarini egallab turgan lavozimidan ozod etish to‘g‘risida asoslangan taklifni Boshqaruv raisi Jamiyat kuzatuv kengashiga taqdim etishi mumkin.

7. Jamiyat nomidan mehnat shartnomasini bekor qilishni rasmiylashtirish Kuzatuv kengashi raisi yoki Kuzatuv kengashi tomonidan vakolat berilgan shaxs tomonidan imzolanadi.

3. VAZIFA VA FUNKSIYA

3.1. Bo‘limning asosiy maqsadi Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurash bo‘yicha ISO37001:2016 xalqaro standarti talablariga javob beruvchi kompleks tizimni, xususan korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini joriy etish, korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash va ularning oldini olish, ularga imkon beruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish, korrupsiyaviy xatti-harakatlar sodir etilishining oldini olish, jamiyat tizimi xodimlarida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish maqsadida ularning huquqiy ongi va madaniyatini oshirish, jamiyat tizimida korrupsiyaga qarshi profilaktik chora-tadbirlarni tashkil etish, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi hujjatlar ijrosini ta‘minlashdan iborat.

3.2. Jamiyatning strategik maqsadlarini amalga oshirish, jamiyat boshqaruvida tezkorlikni oshirish, jamiyat faoliyati ochiqligi hamda shaffofligini ta‘minlash hamda Jamiyat kuzatuv kengashi va boshqaruv raisinini aniq axborot bilan ta‘minlash Bo‘limning maqsadi hisoblanadi.

3.3. Har yili korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar va ishlar to‘g‘risidagi bo‘limning hisoboti Jamiyat Kuzatuv kengashiga

taqdim etish.

3.2. Har chorakda bo‘lim tomonidan amalga oshirilgan ishlar haqida Kuzatuv kengashiga ma‘lumot kiritib boradi.

3.3. Quyidagilar Bo‘limning asosiy vazifalari hisoblanadi:

Jamiyatda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni profilaktika qilish va ularga qarshi kurashish;

Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatni amalga oshiruvchi hamda unda ishtirok etuvchi boshqa davlat organlari va tashkilotlari bilan hamkorlikni olib borish;

Xaridlar sohasini moliyaviy mablag‘lardan foydalanishning oqilonaligi, tejamkorligi va samaradorligi prinsiplari asosida amalga oshirilishini nazorat qilish;

Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ochiqlik va shaffoflikni tashkil qilish;

boshqaruv va biznes jarayonlarida korrupsiyaviy risklarni kamaytirish va nazorat tadbirlarini tashkil qilish.

3.4. Bo‘lim o‘ziga yuklatilgan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

a) Korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha faoliyatini takomillashtirish sohasida:

korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishga qaratilgan ichki idoraviy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqadi;

jamiyatning korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha chora-tadbirlarini ishlab chiqadi va tasdiqlash uchun jamiyat boshqaruviga kiritadi;

Jamiyat tarkibiy bo‘linmalarida korrupsiya holatlarini, ularning sabablari va shart-sharoitlarini bartaraf etish yuzasidan takliflar kiritadi, ushbu chora- tadbirlarni amalga oshirishda ishtirok etadi;

Jamiyat boshqaruviga taqdim qilinadigan buyruqlar (shaxsiy tarkibdan tashqari), farmoyishlar, shartnomalar, yuridik tusdagi boshqa hujjatlar loyihalarini ularning korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazadi.

Jamiyat tarkibiy bo‘linmalari bilan birgalikda ularning mansabdor shaxslari hamda xodimlari faoliyatida korrupsiya holatlari ko‘rsatilgan murojaatlarni ko‘rib chiqishda ishtirok etadi;

boshqaruv tizimini takomillashtirish, tuzilmalar hamda ularning mansabdor shaxslarining huquq va majburiyatlarini belgilash bo‘yicha takliflar ishlab chiqishda ishtirok etadi;

Jamiyat vakolatiga kiradigan masalalar bo‘yicha normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda ishtirok etadi;

amaldagi normativ-huquqiy hujjatlarning ularda korrupsiyaga sabab bo‘ladigan omillarni aniqlashga qaratilgan tahlilni o‘tkazadi;

Jamiyatning mulkiy va boshqa manfaatlarini huquqiy himoya qilish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni tayyorlashda hamda belgilangan tartibda sud majlislarida ishtirok etadi;

Jamiyat tarkibiy bo'linmalari bilan birgalikda jamiyatda mulkning talon-toraj qilinishi, kamomad va boshqa xarajatlarning kelib chiqishi sabablari, sharoitlarini tahlil qiladi hamda kelgusida oldini olish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi.

b) Jamiyatda korrupsiyaga oid huquqbuzarliklarni profilaktika qilish va ularga qarshi kurashish sohasida:

Jamiyatda korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholaydi, ularning natijalari bo'yicha aniqlangan xavf-xatarlarni kamaytirish yuzasidan chora-tadbirlar rejalarini ishlab chiqadi va korrupsiyaviy xavf-xatari yuqori bo'lgan lavozimlar ro'yxatini yaratadi;

jamiyat tomonidan o'xshash huquqbuzarliklar sodir etilishi ehtimolini baholash maqsadida, korrupsiyaviy huquqbuzarliklar sodir etilishining holati va yo'nalishlari haqida ma'lumot to'playdi;

Jamiyat boshqaruv raisiga va kuzatuv kengashiga korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha tahliliy materiallar tayyorlaydi;

korrupsiyaviy xavf-xatarlarni baholaydi va ularning natijalari bo'yicha aniqlangan xavf- xatarlarni kamaytirish yuzasidan chora-tadbirlar rejalarini ishlab chiqadi;

maxsus axborot aloqa kanallari orqali korrupsiyaviy xavf-xatarlar va huquqbuzarliklar haqida kelib tushadigan murojaatlarni ko'rib chiqilishini ta'minlaydi;

xizmat tekshiruvlari yakuni bo'yicha berilgan ma'lumotnomalar va boshqa hujjatlarda korrupsiya faktlariga doir xizmat tekshiruvlari bo'yicha ma'lumotlarning to'g'ri hamda to'liq aks ettirib borilishini nazorat qiladi;

davlat xaridlarini amalga oshirishda manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymaslik choralari ko'rish va jamiyat bilan shartnomaviy munosabatlarga (mehnat munosabatlari bundan mustasno) kirishgan har qanday yuridik yoki jismoniy shaxslarning ishonchliligini tekshirish jarayonida ishtirok etadi;

tuzilgan shartnomalarda manfaatlar to'qnashuvi va korrupsiyaviy omillarni tahlil qilib, Jamiyat boshqaruv raisiga va kuzatuv kengashiga takliflar kiritib boradi;

Jamiyat xodimlariga korrupsiyaga qarshi kurashish masalalari bo'yicha tushuntirish va tavsiyalar beradi;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar yuzasidan muntazam ravishda Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligiga (keyingi o'rinlarda — Agentlik) elektron hisobot taqdim etib borish;

korrupsiya faktlari haqida xabar berishga mo'ljallangan maxsus axborot aloqa kanallarining ish natijalarini tahlil qiladi va xodimlarning korrupsiyaviy xavf-

xatarlardan xabardorligini oshirish maqsadida tahliliy materiallarni manfaatdor shaxslarga etkazadi;

Jamiyat faoliyatida korrupsiyaviy holatlarni hamda xavf-xatarlarni aniqlash maqsadida so'rovlar o'tkazadi;

tegishli soha va tarmoqda korrupsiyaviy xavf-xatarlar ro'yxatini shakllantirish, ularni bartaraf etishga qaratilgan chora-tadbirlar ishlab chiqib, tasdiqlanishini ta'minlash;

davlat organlari va tashkilotlarida korrupsiyaga qarshi ichki nazoratni amalga oshirish va korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash imkonini beruvchi situatsion markazlar faoliyatini yo'lga qo'yish bo'yicha takliflar kiritish;

korrupsiyaga qarshi kurashishga oid talab va normalarning buzilishi masalalari bo'yicha intizomiy javobgarlikka tortilayotgan shaxslarga jazo choralarning mutanosibligi hamda etarliligini nazorat qiladi;

korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillastirish maqsadida Jamiyatda korrupsiya faktlari yuzasidan o'tkazilgan xizmat tekshiruvlari natijalari haqidagi ma'lumotlarni tahlil qiladi.

v) Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining samarali ishlashini ta'minlash va nazorat qilish sohasida:

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha davlat dasturlarida Jamiyat zimmasiga yuklatilgan vazifalar ijrosini monitoring qiladi va nazoratini amalga oshiradi;

Jamiyat tarkibiy bo'linmalarida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining ISO37001:2016 Korrupsiyaga qarshi xalqaro standarti talablariga mosligini ta'minlaydi;

Jamiyat xodimlarining malakasini oshirish bo'yicha o'quv rejalarining korrupsiyaga qarshi normalarga oid qismini ishlab chiqishda ishtirok etadi;

Jamiyat xodimlari, shu jumladan korrupsiyaviy xavf-xatari yuqori bo'lgan lavozimlardagi xodimlar uchun korrupsiyani oldini olish bo'yicha o'quv materiallari, videoroliklar, slayd va stendlarni ishlab chiqadi;

o'quv rejaga muvofiq Jamiyatning barcha xodimlari uchun korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha treninglarning o'tkazilishini hamda ularda xodimlarning ishtirok etishini nazorat qiladi;

Jamiyat xodimlari o'rtasida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha targ'ibotlarda ishtirok etadi;

Jamiyatning rasmiy veb-saytidagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish" bo'limi hamda ijtimoiy tarmoqlaridagi sahifalariga joylashtirilgan ma'lumotlarni yangilanib borilishini ta'minlaydi;

Jamiyatdagi xodimlar tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi O'zbekiston Respublikasining qonunchiligiga va Jamiyatning korrupsiyani oldini

olish va unga qarshi kurashish bo'yicha ichki hujjatlariga rioya qilinishini monitoring va nazorat qiladi;

Jamiyat tizimidagi korrupsiyaviy xatti-harakatlar bo'yicha xizmat tekshiruvlarini o'tkazish tashabbusini ilgari suradi va unda ishtirok etadi;

Mehnat jamoasida korrupsiyaga nisbatan muvosiis munosabatni shakllantirish, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'yimaslik va odob-axloq qoidalariga rioya qilish bo'yicha targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borish;

odob-axloq komissiyalari tomonidan manfaatlar to'qnashuvini tartibga solish bo'yicha qabul qilingan qarorlarning xolisligi va maqbulligini tekshiradi;

amalga oshirilgan monitoring, xizmat tekshiruvlari va nazorat tadbirlari natijalari bo'yicha korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqadi;

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ishlarni tashkil etish va xodimlarning huquqiy savodxonligini oshirishga qaratilgan konferensiyalar, uchrashuvlar, seminarlar, tanlovlar va boshqa tadbirlarni tashkil etadi;

Bo'lim qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa funksiyalarni ham amalga oshiradi.

4. BO'LIMNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

4.1. Bo'lim o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi huquqlarga ega:

Jamiyatga kelib tushayotgan normativ-huquqiy hujjatlar bilan tanishish va xizmatda foydalanish;

Jamiyat tarkibiy bo'linmalarining xodimlaridan ularning vakolatiga kiruvchi masalalar yuzasidan tahliliy materiallarni, xulosalarni, statistik va boshqa ma'lumotlarni olish;

Jamiyat tarkibiy bo'linmalari xodimlari faoliyatida aniqlangan korrupsiyaviy huquqbuzarliklar yuzasidan xizmat tekshiruvlarini o'tkazish;

jamiyat boshqaruv raisiga va kuzatuv kengashi korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish bo'yicha takliflar kiritish;

o'z faoliyati doirasida jamiyat tarkibiy bo'linmalariga yozma ko'rsatmalar, topshiriq xatlari va tavsiyalar berish;

Jamiyat boshqaruv raisining korrupsiyaga oid kengashlari, yig'ilishlari va majlislarida ishtirok etish;

xizmat majburiyatlarini bajarish doirasida Jamiyatning mutaxassis va xodimlarini jalb qilish;

Jamiyat tarkibiy bo'linmalarida vakolatiga kiradigan vazifalar va korrupsiyaga qarshi huquq normalariga rioya qilinishi masalalarini o'rganish;

Jamiyat tarkibiy bo'linmalarining korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi qonun hujjatlari bajarilishini ta'minlamayotgan yoxud ularni buzayotgan rahbarlari

va xodimlarini javobgarlikka tortish haqida jamiyat boshqaruv raisiga va kuzatuv kengashiga takliflar kiritish;

Jamiyat tarkibiy bo'linmalarida o'tkaziladigan o'rganishlar, tekshirishlar, taftishlar va xatlovlar yakunlari bo'yicha hujjatlarni ko'rib chiqishda ishtirok etish hamda aniqlangan huquqbuzarliklar yuzasidan xulosalar berish;

Jamiyat xodimlaridan yozma tushuntirishlar olish;

Bo'lim qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega.

4.2. Bo'lim o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun quyidagi majburiyatlarga ega:

- mazkur Nizomdagi vazifalarni o'z vaqtida to'liq va sifatli bajarish;
- axborot xavfsizligini ta'minlash, xizmat hamda tijorat sirlari bilan bog'liq hujjatlar maxfiyligiga rioya qilish, hamda Jamiyat manfaatlariga zid bo'lgan xabar va ma'lumotlarni oshkor qilmaslik va tarqatmaslik;
- mehnat va ijro intizomi, kasbiy odob-axloqning umumiy prinsiplari va xizmat jarayonidagi xulq-atvorining asosiy qoidalari talablariga so'zsiz rioya qilish;
- mehnat muhofazasi, texnika xavfsizligi, yong'in xavfsizligi hamda ichki tartib qoidalarga rioya etish;
- Qonunda belgilangan tartibda qaror, buyruq va farmoyishlarni hamda lavozim vazifalarini o'z vaqtida va sifatli bajarish;
- hisobotlarni to'liq, asosli, sifatli va o'z vaqtida taqdim qilish;
- Jamiyatning korrupsiyaga qarshi siyosati tamoyillari hamda me'yoriy hujjatlaridagi korrupsiyaga qarshi tegishli talab va tartiblarni tushunish hamda ularga qat'i rioya qilish;
- zimmasiga biriktirilgan asbob-uskunalar, materiallar, jihozlar va boshqa vositalarni, umuman Jamiyat mulkini avaylab asrash.

4.3. Bo'lim xodimlari korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida faoliyat yurituvchi xodimlarga mo'ljallangan o'quv kurslari yoki maxsus seminar-treninglarda ishtirok etadi. O'quv kurslari yoki maxsus seminar-treninglar Jamiyat yoxud Agentlik tomonidan tashkil etilishi mumkin.

4.4. Bo'lim faoliyatining natijadorligi Jamiyatda korrupsiyaga qarshi kurashish tizimining samaradorlik va maqsadli ko'rsatkichlariga erishish natijalariga asosan baholanadi.

5. BO'LIMNING BOSHQA BO'LIMLAR VA TASHKILOTLAR BILAN ALOQALARI

5.1. Bo'lim Jamiyatda tasdiqlangan va qo'llaniladigan amaldagi me'yoriy hujjatlar, qoidalar, yo'riqnomalar va boshqa me'yoriy hujjatlar doirasida uning funksiyalariga taaluqli masalalar bo'yicha Jamiyatning barcha tarkibiy bo'linmalari bilan o'zaro hamkorlik qiladi.

5.2. Bo‘lim o‘zining funksiyalari va vazifalarini bajarish uchun o‘z vakolatlari doirasida huquqni muhofaza qiluvchi va boshqa tashkilotlar bilan o‘zaro hamkorlik qiladi.

6. BO‘LIM JAVOBGARLIGI

6.1. Nizomda yuklatilgan vazifalarni bo‘lim xodimlari tomonidan o‘z vaktida va sifatli bajarilishi, mehnat intizomiga rioya qilinishi va mehnat vazifalarini talab darajasida bajarilishi, hujjatlarni o‘z vaqtida rasmiylashtirilishi, mehnat majburiyatlari buzilganligi ustidan nazoratni O‘zbekiston Respublikasining amaldagi me‘yoriy hujjatlariga asosan bo‘lim boshlig‘i olib boradi.

6.2. Bo‘lim xodimlari ichki mehnat qoidalarini, mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi hamda yong‘in xavfsizligi qoidalarini buzganlik, lavozim vazifalari va majburiyatlarini, buyruq va farmoyishlarni belgilangan tartibda lozim darajada bajarmaganliklari uchun o‘rnatilgan tartibda javobgarlikka tortiladilar.

7. FAOLIYATNI NAZORAT QILISH

7.1. Bo‘lim faoliyatini bevosita nazorat qilish Kuzatuv kengashi tomonidan amalga oshiriladi.

7.2. Yuridik bo‘limi bo‘limning uning faoliyatini belgilangan me‘yoriy hujjatlar va tartiblarga muvofiqligini nazorat qiladi.

7.3. Kiber xavfsizlik bo‘lim xodimlari tomonidan foydalaniladigan axborot tizimlariga kirish huquqlarini nazorat qiladi.

7.4. Personalni boshqarish bo‘limi mehnat intizomiga rioya etilishini nazorat qiladi..

7.5. Ijro nazorati va murojaatlar bilan ishlash bo‘limi tomonidan ijro intizomiga rioya qilinishini nazorat qiladi.